

TABIIY SERPUSHT QORAKO'L QO'YLARINING HAYOTCHANLIGI

M.M.Ismailova

tayanch doktorant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14275078>

Annotatsiya. Maqolada Samarqand viloyati Nurobod tumani "Tutli qorako'l zamini" mas'uliyati cheklangan jamiyatida urchitiluvchi qora rangli serpusht tipli qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarning hayotchanligi bo'yicha olingan natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: qorako'l qo'ylari, avlod, tabiiy serpusht, egiz tipli, yolg'iz tipli, hayotchanlik, mahsuldorlik, konstitutsiya.

Аннотация. В статье описаны результаты изучения жизнеспособность у потомства многоплодных каракульских овец черной окраски разводимых в ООО «Тутли каракуль замини» Нуруабадского района Самаркандской области.

Ключевые слова: каракульские овцы, потомство, естественное многоплодие, единцы, двойни, продуктивность, конституция.

Abstract. The article describes the results of studying the viability of the offspring of multi-fertility black Karakul sheep bred in the Tutli Karakul Zamini LLC in the Nuruabad district of the Samarkand region.

Key words: Karakul sheep, offspring, natural fertility, singles, twins, productivity, constitution.

Qorako'l qo'ylari ekstremal cho'l sharoitlariga yaxshi moslashgan qo'y zoti hisoblanadi. Shuningdek, qorako'l qo'ylari qishning sovug'i va yozning issig'ida ham ozuqa kam bo'lgan yaylovlarda oziqlanib mahsulot beradi. Ularni urchitishda boshqa qimmatli xususiyatlari kabi, hayotchanligini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Hayotchanlik bu ma'lum bir populyatsiya yoki guruhdagi individlarning (hayvonlar) tirikligi va nobud bo'lishi o'rtasidagi farq hisoblanadi. Ko'pincha bir vaqtda tug'ilgan hayvonlarning har birini ma'lum yoshgacha yashashi hisobga olinadi. Ayrim yosh guruhlar uchun hayotchanlik ikki usul bilan aniqlanadi: 1. Hayvonning tug'ilgan vaqtinn belgilash yoki hisobga olish. 2. O'lganda, ya'ni yoshi ma'lum bo'lgan hayvonda aniqlanadi. Hayotchanlikni hisoblash uchun populyasiyadagi hayvonlarning yoshlari ma'lum bo'lishi kerak.

Sut emizuvchilarda yoshni hisobga olishda tishlarning yemirilishi, shuningdek, tish va suyak qavatlarining tuzilishi asosida aniqlash mumkin. Populyatsiyadagi hayvonlarning hayotchanligi yoshi ortgan sari pasayib boradi.

Adabiyotlar tahlili. Turli rangdagi qorako'l qo'ylari o'rtasida konstitutsiyaviy, mahsuldorlik va reproduktiv xususiyatlarning namoyon bo'lishida farqlanishlar mavjud. Qora rangli qo'ylar konstitutsiyaviy jihatdan kuchli, ko'k rangli hayvonlar esa biologik xususiyatlariga ko'ra rivojlanish sharoitlari bo'yicha ko'proq talabchan va hayotchanligi past bo'ladi. Qora rangli qo'ylarga nisbatan kulrang qo'ylar ham ba'zi konstitutsiyaviy xususiyatlari bo'yicha kuchsizligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ularni ko'paytirishda alohida, qulayroq sharoitlar yaratilishi kerak [2].

Navoiy viloyati adir sharoitida turli etologik tiplarga mansub qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylar avlodlarining hayotchanlik xususiyatlari o'rganilganda, 4-4,5 oylikka kelib birinchi etologik tipga mansub qo'ylar avlodlarining hayotchanligi 98,1%, II-tipda 97,8 va III tipda 96,1% ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich 12 oylikda mos ravishda 96,1; 94,6 va 92,1% ni hamda 18 oylikda 95,2; 93,5 va 90,2% ni tashkil etgan. Hayotchanlikning nisbatan past bo'lishi ularning iqlimlashish xususiyatlari bilan bog'liq. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hayvonlar yoshining ortib borishi bilan ularning hayotchanligi kamayib borgan. Shuningdek, I-etologik tipdagi qo'zilarining barcha yosh davrlari bo'yicha hayotchan bo'lishi aniqlangan [4].

Qoraqalpog'iston sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda hayotchanlik 4-4,5 oylikda etologik tiplar kesimida 99,5; 98,0 va 97,0% ni tashkil qilgan. 18 oylik yoshiga kelib, I-tipda 97,4%, II-tipda 93,9% va III-tipda 90,9% ni tashkil qilgan. Ushbu tadqiqot natijasida ham I-etologik tipdagi qo'zilar hayotchan bo'lgan va yosh ortib borishi bilan guruhning hayotchanlik ko'rsatkichi pasayib borgan [3].

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, qora rangli serpusht tipli qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarning hayotchanligini aniqlash yo'nalishida tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar Samarqand viloyati Nurobod tumani "Tutli qorako'l zamini" mas'uliyati cheklangan jamiyatida urchitiluvchi qora rangli serpusht tipli qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarda olib borildi. Tajribadagi qorako'l qo'zilarining hayotchanligi 4-4,5; 12 va 18 oylik yoshida har xil sabablarga ko'ra nobud bo'lgan qo'zilarni hisobga olish orqali aniqlandi.

Olingan ma'lumotlarga variatsion statistika usullarida ishlov berilib, o'rtacha arifmetik miqdor (\bar{X}) va uning xatosi ($S\bar{x}$) aniqlandi [1].

Tadqiqot natijalari. Qorako'l qo'ylarning hayotchanligi ulardan olinadigan

avlodlar va mahsuldorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Albatta, hayotchanligi yuqori qo'ylardan sog'lom, mustahkam konstitutsiyali, nasldor avlodlar olinadi. Qora rangli serpusht tipli qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarning hayotchanligi bo'yicha olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Avlodlarning hayotchanligi

Ko'rsatkichlar	n	Hayotchanlik							
		tug'ilganda		4-4,5 oylikda		12 oylikda		18 oylikda	
		n	%	n	%	n	%		
Egiz tipli qo'zilar	73	73	100,0	70	95,89	68	93,15	67	91,78
Yolg'iz tipli qo'zilar	165	165	100,0	162	98,18	159	96,36	157	95,15

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, (1-jadval) serpusht tipdagi qo'ylardan olingan avlodlarda qo'zilarining yoshi ortib borishi barobarida ularning hayotchanligi pasayib borgan. Shuningdek yolg'iz tipda tug'ilgan qo'zilar egiz tipda tug'ilgan qo'zilarga nisbatan hayotchanligi yuqori bo'lgan. Tajriba uchun egiz tipda tug'ilgan qo'zilardan 73 bosh olingan bo'lsa ularning 4-4,5 oylik yoshiga kelib guruhning hayotchanligi 95,89% ga pasaygan. Bu ko'rsatkich 12 oylik yoshiga kelib yana 2,74 foizga pasaygan bo'lsa 18 oylik yoshiga kelib tug'ilgandagiga nisbatan guruh qo'zilarining hayotchanligi 8,22% ga pasayib, 91,78% ni tashkil qilgan.

Yolg'iz tipda qo'zilar bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 4-4,5 oylik yoshida hayotchanlik ko'rsatkichi 98,18% ni, 12 oylikda 96,36% ni, 18 oylikda 95,15% ni tashkil qilgan.

Umuman olganda, qora rangli serpusht tipli qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarning hayotchanligi 18 oylik yoshida 91,78-95,15% atrofida bo'lishi aniqlanib, yolg'iz tipli qo'zilar egiz tipli qo'zilarga nisbatan hayotchanligi yuqori bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. 256 с.
2. Стояновская В.И. Разведение серых каракульских овец. Ташкент: ФАН, 1966, 170 с.
3. Urimbetov A.A. Qoraqalpoq sur qo'ylarining etologiyasi va mahsuldorligi. Nukus, 2020-y. 62-63-b.



4. Musayeva, S. I. (2024). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF INTERACTIVE METHODS INTRODUCING THE CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) APPROACH. World Scientific Research Journal, 32(1), 217-219.
5. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo rivojlantirish.
6. Xatamov A.X. Adir sharoitida qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarining etologiyasi, biologiyasi va mahsuldorligi. Toshkent, 2021-y. "OOO Zamin-nashr". 52-53-b.



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

